

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

KOMILOVA GULMIRA OLIMOVNA

**BILINGUAL SHE'RIYATDA LINGVOPOETIK VOSITALARNING
QIYOSIY TAHLILI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiysi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasি

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy(PhD)

Komilova Gulmira Olimovna

Bilingual she'riyatda lingvopoetik vositalarning qiyosiy tahlili.....3

Komilova Gulmira Olimovna

Систематический анализ лингвопоэтических средств в билингвальной
поэзии.....23

Komilova Gulmira Olimovna

Systematic Analysis of Linguopoetic Findings in Bilingual Poetry.....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxat

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

KOMILOVA GULMIRA OLIMOVNA

**BILINGUAL SHE'RIYATDA LINGVOPOETIK VOSITALARNING
QIYOSIY TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2947 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jo‘rayeva Malohat Muhammadovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Umarova Mahliyo Yunusovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertasiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21 A uy. tel: (99871) 230-12-91. faks: (99871) 230-12-92; email:uzswlu_info@mail.ru

Dissertasiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21 A uy. tel: (99871) 230-12-91. faks (99871) 230-12-92.

Dissertasiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____ da _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, f.f.d., professor

J.A.Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida zamonaviy konsepsiylar doirasida adabiy hodisalarni antroposentrizm paradigmalarida talqin qilish, turli tillardagi adabiy munosabatlarni kompleks tarzda o‘rganish dolzarb mavzulardan biridir. Kommunikativ diskursda xalqaro tillarning she’riyati va ulardagi badiiy vositalar, ikki va undan ortiq xalqning she’riyatidagi adabiy birliklarning lingvopoetik xususiyatlarini solishtirma tahlil qilish she’riy asarlar majmuasiga oid nazariyalarni ilmiy baholash imkoniyatini taqdim etadi. Shuningdek, ikki noqardosh til adabiyotining qiyosiy tahlili, ularning muammolarini lingvopoetik jihatdan tadqiq etish, ingliz va o‘zbek she’riyati qirralarini o‘rganish adabiyotshunoslik rivojiga sezilarli hissa qo‘sadi. Ayniqsa, yangicha tafakkur asosida madaniyatlararo diskursda ingliz va global tillar she’riyati o‘rtasida lingvomadaniy hamda kommunikativ-diskursiv jihatlarni qiyoslash, psixologik hamda kompleks tahlil, funksional ta’riflash mavzu doirasidagi nazariy yondashuvlarni baholash imkonini beradi.

Dunyo adabiyotshunosligida she’riyat tadqiqi turli tillar kesimida muvaffaqiyatli o‘rganilgan. Ammo ingliz, fransuz, o‘zbek va tojik adabiyotining qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqi, bizningcha, hali etarlicha amalga oshirilmagan. Xususan, ingliz va o‘zbek bilinguval shoirlarining lingvopoetik vositalardan foydalanish uslubi umummilliy qoliplar asosida ilmiy asoslanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, “Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. Bu borada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan e’tiborga molik ishlar, xususan, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini izchil rivojlantirish, jahon adabiyotining durdona asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o‘ylaymanki, katta ahamiyatga ega”¹.

Yangi O‘zbekiston davlat dasturlarida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilgan ilm-fanni yanada rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish, Mag‘rib va Mashriq ma’naviy-madaniy muloqotida ingliz va o‘zbek bilingual shoirlari ijodida lingvopoetik vositalarning struktur-semantik xususiyatlarini o‘rganish innovatsion taraqqiyot istiqbollarini belgilashga xizmat qiladi, qiyoslash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf etish usullarini yorituvchi bir qancha fundamental loyihalar adabiyot va tilshunoslikning lingvostistik yo‘nalishlari kesimidagi tahlilni kengaytiradi. Mazkur tadqiqotning qiyosiy-chog‘ishtirma ham nazariy jihatdan ilk bor amalga oshirilayotgani, hozirga qadar lingvopoetik vositalardan foydalanish uslubining ikki tilda kompleks tizimga solinmagani, shuningdek, adabiy janrlarning o‘zaro ta’sir va o‘zlashtirish jarayonlarining to‘liq

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi. 2018-yil, 7-avgust. <https://kknews.uz/oz/21772.html>

tadqiq etilmaganligini inobatga olsak, mazkur ish jahon adabiyotshunosligi ravnaqi uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiya natijalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdag“Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis palatalariga 2020-yilning 24-yanvaridagi Murojaatnomasi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari shuningdek, mavzuga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovation g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganiganlik darjasи. Bilingual she’riyatda lingvopoetik vositalarni tadqiq qilishda jahon va o‘zbek adabiyotshunoslari muhim o‘rin tutadi. Xususan, bilingual she’riyat bilan bog‘liq Steven G.Kellman, Anatoliy Liberman, Rainier Grutman, Johannes Kabatek, Doris Sommer, Julia Kristeva, Eduard Glissant, Maykl Kronin, Reyn Meylaerts, Gilles Deleuze, Feliks Guattari singari tadqiqotchilar lingvopoetik vositalarning o‘rnini tahlil qilishgan. Emili Apter lingvopoetik vositalarning tarjimadagi madaniy va estetik murakkabliklarini o‘rgangan bo‘lsa, Lidiya Liu Xitoya tarjima orqali milliy madaniyatni qayta shakllantirishda lingvopoetik jarayonlarni tahlil qiladi. Lourens Venuti tarjimonlar lingvopoetik vositalar orqali madaniyatlararo ta’sirga e’tibor qaratadi. Amerikalik olim Homi K.Bhabha esa “hybridity” konsepsiyasida tillararo muloqot va yangi identitetlarning lingvopoetik asoslarini yoritadi². Bilingual lingvopoetik yo‘nalishda rus olimlari

² Steven G.Kellman. The Translingual Imagination (2000). University of Nebraska Press. page 160, Doris Sommer Proceed with Caution, When Engaged by Minority Writing in the Americas (1999) Harvard University Press. Page 366. Anatoly Liberman. German folk at the University of Minnesota Recent Semesters.(2022) Page 70-100. Johannes Kabatek El engaño de la traducción y la construcción de las lenguas románicas medievales: algunos aspectos lingüísticos y semióticos Année (2006). Page. 469-482. Doris Sommer. Bilingual Aesthetics: A New Sentimental Education (2004).

L.M.Kozenyashevaning “XIX-XX asr ingliz adabiyotida xizmatkor tasvirini yaratishning lingvopoetik vositalari”³ mavzusida, N.M.Azarovaning “She’riy bilingivizm madanyatlararo vosita sifatida”⁴ nomli tadqiqoti, Anatoliy Alekseyevich “Lingvopoetik jihatdan romantik matn: badiiy nashr va metapoetik G.Von Kleist asari misolida”⁵ ilmiy asari, Y.B.Borisovaning “XX asr ingliz adabiyotida badiiy tasvir: tipologiya-lingvopoetika-tarjima”⁶ kabi izlanishi, L.S.Karpovaning “Rivoyat turlarining lingvistik poetikasi, lingvistik va poetik tadqiqotning boshqa usullari”⁷ singari tadqiqotlari yaratildi.

L.Blumfield, R.K.Minyar-Belaruchev, I.A.Zimnaya, V.A.Avrarin, A.R. Diebold, Y.N.Karaulov, V.N.Neroznak V.N.Komissarov, L.V.Shcherba kabi olimlarning ishlari bilingual lingvopoetika va ikki tillilikning turli jihatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga kasb etadi. Olimlarning nazariyalari lingvistik, psixolingvistik, sotsiolingvistik va didaktik nuqtayi nazarlardan bilingvismni chuqr o‘rganishga va bilinguallikning lingvopoetikadagi imkonyatlari to‘g‘risidagi nazariyalarni o‘rganishga xizmat qiladi.

O‘zbek adabiyotining buyuk vakili Mir Alisher Navoiy⁸ ning nasriy va nazmiy asarlari tili badiiy mahorat jihatidan chuqr o‘rganilganligi, ulug‘ mutafakkirning badiiy uslubiga xos lisoniy vositalar mohiyatining ohib berilishi, o‘zbek akademik olimi Sh.Shoabduraxmonov⁹ning o‘zbek xalq dostonlaridagi mavzuga oid jihatlarni o‘rganishi, tilshunos L.Abdullayeva¹⁰ning o‘zbek badiiy adabiyoti tilining leksik-stilistik muammolari haqidagi fikrlari, E.Qilichevning “Badiiy tasvirning leksik vositalari”¹¹ bilan bog‘liq masalalar tahlili, B.Umurqulovning “Poetik nutq leksikasi” nomli monografiya¹² sida poetik leksika, an’anaviy poetizmlar, so‘z variantlari va ularning estetik qimmati kabi masalalar, M.Q.Baqoyevan “Ingliz va o‘zbek she’r tuzilishlarini qiyosiy o‘rganish va tarjima muammolari” hamda “Ingliz va amerika adabiyotidan o‘zbek tiliga she’riy tarjima taraqqiyoti” singari ilmiy asarlarida ingliz va amerika adabiyotidan o‘zbek tiliga she’riy tarjima va qiyosiy she’rshunoslik

Page 344. Julia Kristeva. *Étrangers à nous-mêmes* (1988) Fayard. Page 285. Édouard Glissant. *Poétique de la Relation* (1990) Gallimard. Page 16. Michael Cronin *Translation and Identity* (2006) Routledge. Page 254. Reine Meylaerts. *Habitus and Self-Image of Native Literary Translators in Diglossic Societies* (2004) *Linguistica Antverpiensia*. Page 365. Emily Apter. *The Translation Zone: A New Comparative Literature* (2006) page13. Lydia Liu. *Translingual Practice: Literature, National Culture, and Translated Modernity-China, 1900–1937* (1995) Page 145. Lawrence Venuti. *The Translator’s Invisibility: A History of Translation*” (1995) Page 25. Homi K. Bhabha. *The Location of Culture* (1994) Page 198.

³ Козеняшева М. Лингвопоэтические средства создания образа слуги в английской литературе XIX-XX веков. – М., 1985. – С.96.

⁴ Азарова Н. М. Поэтический билингвизм как средство межкультурного трансфера. – М., 2016. – С .255- 307.

⁵ Серебряков А.А. Романтический текст в лингвопоэтическом аспекте: на материале художественной прозы и метапоэзии Г. фон Клейста: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2010. – С.48

⁶ Борисова Е.Б. Художественная презентация в английской литературе XX века: типология-лингвопоэтика-перевод. – Самара, 2010. – С.35.

⁷ Карпова Л.С. Лингвистическая поэтика повествовательных типов и другие методы лингвопоэтического исследования. – Москва, 2009. – С.37.

⁸ Навои А. (XV в.) Суждение о двух языках (Мухокамату-л-лугатайн) 1499. – С.155.

⁹ Shoabduraxmonov Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. – T., 1962. – B.15.

¹⁰XİN-in yeni xanım mətbuat katibi kimdir? na 1news.az (консультировался на 17 октября 2022 г.).

¹¹ Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – T.: Fan, 1982., Xojoiev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1974. – B.6.

¹² Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Т.: Фан, 1990. – С.32.

muammolari¹³ tadqiq etilganligi ikki tilli va tillararo adabiyotning turli jihatlarini o‘rganishda muhim nazariy asoslarni yaratadi hamda shu kabi tadqiqot ishlari ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli jamiyatlarda til va adabiyotning rolini chuqurroq tushunib, anglashga yordam beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliv ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida “Angliya va Amerika adabiyoti tarixi va dolzarb masalalari, badiiy tahlil usul va tamoyillari” ustuvor ilmiy yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bilingual ijodkorlar she’riyatidagi lingvopoetik vositalarning universal va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bilingual sheriyatining ilmiy nazariy asolarini belgilash, tarixiy shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini tafsiflash;

bilingual she’riyatidagi ishtimoiy-madaniy omillarni aniqlash, lingvopoetik vositalarning ifodalaniishi hamda milliy o‘ziga xoslik jihatlarini tahlil qilish;

ingliz va o‘zbek bilingual she’riyatida lisoniy vositalarni ikki tilda shakl munosabatini saqlash, ularni tasavvur g‘oyasini ikki tilda mushtarak va farqli tomonlarini olib berish;

har ikki tildagi bilingual she’riyatni badiiy estetik, madaniy, uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samuell Bekket, Jek Keruak, Oskar Uayld, Sadriddin Ayniy, Sadriddin Salim Buxoriy kabi bilinguval shoirlar she’riyati namunalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek bilingual she’riyatidagi lingvopoetik vositalarning qiyosiy tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ishning mohiyatini aniqlashda tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, tizimlashtirish, kompleks tahlil, kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

bilingual she’riyatning tarixiy shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini tafsiflash orqali qiyoslanayotgan tillarda bilingual she’riyatning yuzaga kelishidagi ishtimoiy-madaniy omillar aniqlangan;

bilingual shoirlar ikki turli madaniyat va tilning ta’siri ostida yaratgan asarlarda milliy o‘ziga xos xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan lingvopoetik jihatlar mualliflar ijodi poetikasini o‘rganish orqali olib berilgan;

bilingual she’riyatda metafora, metonimiya, sinekdoxa, shaxslantirish, tamlama, ramz, alliteratsiya, assonans, ta’rif, o‘xshatish, qofiya, ritm, ironiya, satira singari tasviriy vositalarda bilingual farqlanish isbotlangan;

bilingual shoirlar ijodida o‘z madaniyati va davri bilan bog‘liq she’riy shakllar va uslublar ustuvorligi lingvopoetik vositalar tasviri, g‘oyalar mushtarakligi bilan bog‘liqligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

¹³ Бақоева М.К. Инглиз ва америка адабиётидан ўзбек тилига шеърий таржима ва киёсий шеършунослик муаммолари. Рисола. – Тошкент: Фан, 2015. – Б. 16-74.

Bilingual she'riyatning qiyosiy tahlili lingvopoetik vositalarning xususiyatlari aniqlanib, ushbu tahlillar ikki tilli she'riyatning lingvistik va she'riy nozikliklarini yoritib beradi, madaniyatlararo adabiy ifoda haqidagi ilmiy nutqni boyitadi, ikki tilli she'riyatda lingvistik va poetik vositalarning qo'llanilishi, shuningdek, ularning ta'siri haqida bilimlarni kengaytiradi.

Tahlilga tortilayotgan har bir tilning o'ziga xos poetik qurilishi va estetikasiga e'tibor qaratish, farqlarni tavsiflash, har bir tilga xos she'riy vositalarining mazmun va his-tuyg'ularni ifodalashdagi samaradorligini solishtirish, turli tillarda she'rlar yozishda madaniy elementlar hamda kontekstlarning roli, omillarning she'rlar mazmuniga ta'siri kabi xususiyatlarni tahlil qilish usullari belgilab olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida qo'llanilgan yondashuv va vositalarning zamonaviy abiyotshunoslik va tilshunoslik nazariyalariga mosligi, tadqiqot materiallarining ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, mavzu bo'yicha chiqarilgan xulosalarning aniqligi, nazariy fikr, xulosa, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek bilingvist shoirlarining lingvopoetik vositalardan foydalanish uslubini tizimlash hamda tavsiflash, milliy-madaniy xususiyatlarini yoritish, antroposentrik paradigma doirasida o'rganish jarayonida ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bilinguval shoirlarning lingvopoetik vositalardan foydalanish uslubi xususiyatlariga kompleks yondashish, tahlil qilish orqali olingan xulosalardan "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Leksikologiya", "Adabiyotshunoslikka kirish", "Ingliz adabiyoti", "Fransuz adabiyoti" kabi fanlardan o'quv qo'llanma va darsliklar yaratishda, ingliz, fransuz va o'zbek tillari doirasida adabiy terminlarning izohli lug'atini tuzishda, izohli va ensiklopedik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bilingual she'riyatning lingvopoetik vositalari qiyosiy tahlili yuzasidan olingan natijalar asosida:

bilingual she'riyatning tarixiy shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini tavsiflash orqali qiyoslanayotgan tillarda bilingual she'riyatning yuzaga kelishidagi ishtimoiy-madaniy omillar aniqlangani xususidagi nazariy mulohazalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-FI-OO5 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 14-fevraldagi 17.01/1-sun ma'lumotnomasi). Ilmiy natijaning amaliyotga tatbiq etilishi notiqlik san'ati, nutq ravonligi, turli tizimli tillar doirasida adabiyot va tillararo muloqot, ikki tillilik, ikki tilda ijod qilish, bilingual she'riyatda lingvopoetik vositalarning universal va differensial belgilarini tahlil qilish imkonini bergen;

bilingual shoirlar ikki turli madaniyat va tilning ta'siri ostida yaratgan asarlarda milliy o'ziga xos xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan lingvopoetik jihatlar mualliflar

ijodi poetikasini o'rganish orqali ochib berilgani, bilingual she'riyatda metafora, metonimiya, sinekdoxa, shaxslantirish, tamlama, ramz, alliteratsiya, assonans, ta'rif, o'xshatish, qofiya, ritm, ironiya, satira singari tasviriy vositalarda bilingual farqlanish isbotlanganiga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2022-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 "Turkiy tillarning lingvodidaklik elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 7-oktyabrdagi 01/10-2030-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan elektron platformani takomillashtirishga xizmat qilgan;

bilingual shoirlar ijodida o'z madaniyati va davri bilan bog'liq she'riy shakllar va uslublar ustuvorligi lingvopoetik vositalar tasviri, g'oyalar mushtarakligi bilan bog'liqligi dalillangani borasidagi xulosa va takliflardan Buxoro viloyati teleradiokompaniyasi tomonidan 2022-yil sentyabr oyida efirga uzatilgan "Assalom, Buxoro", "Munosabat", "Sakkizinch mo'jiza" teleko'rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda samarali foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 6-sentyabrdagi 1/229-son ma'lumotnomasi). Natijada teleradiokompaniya ijodiy jamoasining chet tillar doirasida tillararo muloqot qilishi va mulohaza yuritishi uchun zamin yaratishda muayyan darajada xizmat qilib, ko'rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 4 ta respublika, 6 ta xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan, 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va atamalar izohidan iborat bo'lib, umumiyyajmiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

"Kirish" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, metodlari tafsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsyaning "*Adabiyotshunoslikda bilingual she'riyatning rivojlanish asoslari*" deb nomlanuvchi birinchi bobda bilinguval she'riyatning umumiyyajmiy jihatlari o'rganilgan hamda ushbu masalaga oid xorij va o'zbek olimlarining ilmiy yondashuvlari umumlashtirilgan va ularga munosabat bildirilgan.

Jumladan, bobning birinchi fasli "Bilingual she'riy asarlar xususida ilmiy-nazariy qarashlar" deb nomlangan bo'lib, unda ko'plab olimlarning zullisonayn, ya'ni ikki

tillilikni adabiyotdagi ko‘p qirrali va ko‘p fikirlilik kontekstida tushunish hamda baholash mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

Ma’lumki, bilingual she’riyat – bu ikki tilda yozilgan she’rlarni ifodalovchi atama hisoblanadi. “Bilingual” so‘zi ingliz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, ikki tilda yoki ko‘p tilda gaplashish yoki yozish holatini anglatadi. Bu turdagи she’riyat, madaniyatlararo va tillararo o‘tishlar orqali yangi ma’no va estetik qatlamlarni yaratadi.

N.M.Azarova o‘zining “Madaniyatlararo transferi vositasi sifatida she’riy bilinguvallik” dissertatsiyasi¹⁴da she’riy ikki tilli tarixda alohida ekskursiyalar, asosan, milliy adabiy tillarni shakllantirishning xususiy masalalarini keng yoritadi.

Manbalardan qadimgi yunon va Rim aristokratiyasining til xatti-harakatlarini “bilinguallarning xatti-harakati” deb hisoblaganliklari kuzatiladi, shuningdek, “She’riy bilinguvallik” atamasi olim G.A.Levinton¹⁵ ishlarida uchraydi. Bu esa she’riy bilinguvallik adabiy lotin, yunon va keyinchalik mahalliy lotin tillarining birgalikda yashashi, Rim she’riyati o‘rtasidagi doimiy almashinish, yunon tilining turli lahjalari o‘rtasidagi roli haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Professor E.M.Vereshchagin nazariyasiga ko‘ra: “Bilinguvallik – shaxsga izchil ravishda ikki til tizimiga tegishli bo‘lgan nutqiy asarlarni ko‘paytirish va yaratib beruvchi aqliy mexanizm (bilim, ko‘nikma, malaka) sanaladi”¹⁶.

Olim V.Y.Rozentsveyg ikki tillilikni shunday ta’riflaydi: “Ikki tilni bilish va muloqot holatiga qarab bir tildan ikkinchi tilga muntazam o‘tishdir”¹⁷, I.G.Balxanovning ta’rificha, “Ikki tillilik ko‘p tilli aholi o‘rtasidagi aloqalar natijasida paydo bo‘lgan ijtimoiy-lingvistik va tarixiy hodisa”¹⁸ hisoblanadi.

Bundan tashqari V.N.Komissarov, I.A.Zimnaya, R.K.Minyar-Belaruchev, V.A.Avrarin, L.V.Shcherbasingari qator olimlar¹⁹ ikki tilni o‘rganish, ularni egallagan holda og‘zaki muloqot sharoitlariga qarab muqobil ravishda ishlatish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgani alohida e’tiborga molik.

Zotan, ba’zi bir tadqiqotlar to‘g‘ridan to‘g‘ri she’riy ikki tilda ifodalangan vositalarni o‘rganishga qaratilgan emas, bu she’riyatda ushbu hodisaning rivojlanish kontekstini yanada to‘liq tasavvur qilish imkonini beradigan til vositalari shakl munosabatiga ta’sir ko‘rsatmaydi, balki uni tasavvur g‘oyasini ikki tilning yaxlit ko‘rinishda ifodalash holatini tasvirlaydi. Bilinguval she’riyat ta‘lim, til, madaniyat, identifikatsiya va tarjima sohalarida muhim ilmiy-nazariy yondashuvlarni taqdim etadi.

Ushbu bobning ikkinchi fasli “Ingliz adabiyotshunosligida bilingual she’riyatning tarixiy shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari” deb atalgan va unda matnda ikki tillilik

¹⁴ Азарова Н.М. Поэтический билингвизм как межкультурное средство диссертация. 1976. – С.7-9.

¹⁵ Левинтон Г. А. Поэтический билингвизм и межъязыковые взаимодействия. Фещенко, 2015. – С. 201.

¹⁶ Верещагин Е.М. Психологическая и методологическая характеристика двуязычия. М., 1969. – С.160.

¹⁷ Розенцвейг В.Ю. Основные вопросы теории языковых контактов. – М., 1972. – С.5-24.

¹⁸ Балханов И.Г. Двуязычие в процессе межэтнической интеграции. Улан-Удэ, 1998. – С. 80.


¹⁹ Будагов Р.А. К критике релятивистских теорий слова // Вопросы теории языка в зарубежной лингвистике. – Москва, 1961.–С.5–29.; Zimnyaya I.A. Psychology of teaching the written speech. –P.176.; Миньяр-Белоручев Р.К., Остапенко В.П., Ширяев А.Ф. Учебник военного перевода: французский язык / Под ред. Р.К. Миньяр-Белоручева. – М., 1984. –С. 391; Авторин В.А. Двуязычие и школа. В книге: Проблемы двуязычия и многоязычия. – М., 1972. – С.49-62.; Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л., 1974. – С.42.

va uning tarixiy shakllanishi, adabiyot va tilda rivojlanishi haqida kengroq ma'lumotlar berilgan.

Mazkur faslda ingliz adabiyotshunosligida bilingual she'riyatning tarixiy ildizlari, shakllanishi va taraqqiyoti borasidagi bilimlar o'rganilib, ularni tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelindi: 1) *Bilingvismning ildizlari qadimgi zamonlarga borib taqaladi, xususan, rimliklar davrida Iberiya va Galliyani bosib olgach, mahalliy tillar bilan lotin tili o'rtasida shakllangan.* Bu holat mahalliy tillarni lotin tiliga integratsiyalashuvi va keyinchalik zamonaviy ispan va fransuz tillarining rivojlanishiga olib kelgan; 2) *Bilingvismning ijtimoiy va lingvistik oqibatlari – tillarning aralashuvi va ta'siri natijasida yuzaga kelgan va bu jarayonlar ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar bilan bog'liq;* 3) *Hozirgi kunda bilingvism jahon hamjamiyati rivojlanishi bilan yangi sharoitlarga ega bo'lib, xalqaro munosabatlar va madaniy almashinuvlarning kengayishi bilan bilingvism muhim ahamiyat kasb etadi;* 4) *Bilingvismning adabiyotdagi ahamiyati o'rta asrlardan boshlab, Anglo-Norman istilosи davrida paydo bo'lib, XVII-XVIII asrlarda Yevropadagi madaniy aloqalar orqali rivojlangan.*

Xulosa sifatida bilinguvizm adabiyotning rivojlanish jarayonlarini keng qamrovli tarzda yoritib, adabiyotshunoslik va tilshunoslik taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishi aniq, beb aytish mumkin.

Quyida berilgan diagrammada ingliz adabiyotida bilingvismning tarixiy rivojlanishi o'rta asrlardan zamonaviy davrgacha bo'lgan ta'siri vaqt o'tishi bilan oshib borganligini ko'rish mumkin (1-rasm):



1-rasm. Ingliz adabiyotida bilingvismning tarixiy rivoji

Birinchi bobning “*O'zbek adabiyotshunosligi bilingual sheriyatining tarixiy ildizlari va rivojlanishish konsepsiysi*” nomli uchinchi faslida ikki tillilik Markaziy Osiyo, ayniqsa, O'zbekistonning tarixiy va madaniy sharoitida chuqur ildiz otgan hodisa ekanligi, ushbu fenomen etnik va lingvistik xilma-xillik natijasida yuzaga kelgani hamda ko'p asrlar davomida mintaqasi madaniyatining rivojlanishidagi muhim roli haqida fikr yuritiladi. Xususan, IX-X asrlardan boshlab turkiy va fors tillarining o'zaro ta'sirida yozilgan adabiy asarlar mavjudligi, bu davrlarda yaratilgan yozma manbalar, jumladan “Qutadg'u bilig”, “Devon ul-lug'otit turk” va “Hibat ul-haqoyiq”

kabi asarlar turli madaniy va lingvistik an'analarni o'zida mujassam etganligi kuzatiladi.

Aytish joizki, Alisher Navoiyning XV asrda yaratgan asarlari ikki tillilikning adabiyotdagi eng yorqin namunasidir. Shoir Navoiy o'zbek va fors tillarida samarali ijod qilib, har ikkala tilning boy ifodaviy imkoniyatlaridan foydalanganligi, nafaqat o'zbek, balki fors adabiyotida ham alohida o'rin tutadi.

XX asrda ikki tillilik an'anasi Sadriddin Ayniy va Abdulla Qodiriy kabi adiblar ijodida davom etadi. Olimlar ham o'zbek va rus tillarida ijod qilishgan. Bilingvism bu davrda ham nafaqat adabiyotda, balki ilmiy va ma'rifiy sohalarda ham keng tarqalgan bo'lib, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida globalizatsiya jarayonlari tufayli yangi shakllarda namoyon bo'ladi hamda tilshunoslik, psixolingvistika va sotsiolingvistika sohalarida keng qamrovli tadqiqotlar olib boriladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda rasmiy til sifatida o'zbek tilining mavqeini mustahkamlash bilan birga, ingliz, rus va boshqa tillar bilan o'zaro ta'sir ham davom etmoqda. Bu esa bilinguval ta'lim tizimi, xususan o'zbek va rus, o'zbek va ingliz tillarida ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kuchaytiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "*Bilingual shoirlar ijodida poetik mahorat*" deb ataladi. Bobning birinchi faslida bilingual she'riyatda lingvopoetik vositalar va ularning ifodalananish xususiyatlari hamda turli madaniyatlar va tillar orqali kechishi tahlil qilingan. Asosiy tahlil natijalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Bilingual yozuvchilar, ikki turli madaniyat va tilning ta'siri ostida yaratilgan asarlarda milliy o'ziga xos xususiyatlar va hayotiy haqqoniyatni aks ettiradilar.

Bilingual she'riyatda qo'llaniladigan lingvopoetik vositalar orqali yozuvchilar o'z asarlarini boyitadi va mukammallashtiradi. Bunday uslubiy vositalarga metafora, metonimiya, alliteratsiya, assonans, ironiya, paradoks, takror va variatsiya, polisemiya, ambiguitet ("noaniqlik" yoki "ikkita tushuncha mavjudligi") va intertekstualitet (matnlararo aloqalar) kiradi. Ushbu vositalar har ikkala tilning madaniy va lingvistik tavsiyotlarini o'z ichiga oladi va shoir yoki yozuvchi tomonidan samarali taqdim etiladi.

II Bobning ikkinchi fasli "Jek Keruak asarlarida lingvopoetik vositalarning qo'llanilishi" deb nomlanib, Jek Keruakning lingvopoetik vositalarni ifodalash mahorati, ikki tilli (asosan, ingliz va fransuz) she'riyatidagi muhim ahamiyati tahlilga tortilgan. Adibning she'riy uslubi quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi (2-rasm):



2-rasm. Jek Keruak she'riyatiga xos lingvopoetik texnikalar

Jek Keruak she'riyati va uning lingvopoetik vositalardan foydalananish uslubi ijodiy merosining muhim qismini tashkil etadi va bu uslublar "beat avlodii" ning boshqa

vakillari tomonidan ham keng qo‘llanilgan. Jek Keruakning asarlari, ayniqsa, “Mexico City Blues” kabi yirik she’rlari tilning erkinligi va ijtimoiy qadriyatlarga qarshi chiqishni aks ettiradi, adibning she’riyati odatda o‘zining noan’anaviy uslublari, oqim bilan ketish texnikalarini keng qo‘llashi bilan ajralib turadi: *The evening star/ Venus and the moon /Oh là là/ C'est magnifique, the sky/ Je t'aime, mon chéri /*(Kechki yulduz /Venera va oy/ Oh là là /Osmonga qarang, ajoyib/ Seni sevaman, jonim/).

She’rda ingliz va fransuz tillari bir-biriga aralashib, uning tillararo xususiyatini ikki tildagi iboralar madaniy bog‘lanish va hissiy ifodani ochib beradi.

The evening star: Ingliz tilida yozilgan ushbu ibora, kechki yulduzni (odamlar, ko‘pincha, Venera sayyorasini nazarda tutadilar) tasvirlaydi.

Venus and the moon: Bu ibora Venera va oyni tasvirlaydi, kechki osmonda yulduzlar va osmon jismlarining go‘zalligini ifodalaydi.

She’rning ikkinchi yarmida fransuzcha iboralar ishlatilgan bo‘lib, bu uning romantik hissiyotlarini kuchaytiradi: *Oh là là:* Bu fransuzcha ibora hayratni yoki taassurotni ifodalaydi. *C'est magnifique, the sky:* Bu ibora osmonga hayrat bilan qarashni tasvirlaydi. “*C'est magnifique*” fransuz tilida “bu ajoyib” degan ma’noni anglatadi, bu esa osmonga hayrat bilan qarash hissini ifodalaydi. She’rdagi tillar va iboralar o‘rtasidagi ritmik tuzilma musiqiylik va melodik xususiyatlarni yaratadi. Ushbu she’r Jek Keruakning ikki tilli she’riy uslubining yorqin namunasidir. Shoir ingliz va fransuz tillarining kombinatsiyasidan foydalanib, emotsiyonal va estetik tajribani oshiradi. Bu uslub Keruakning boshqa ko‘plab she’rlarida ham uchraydi va uning ijodiy mahorati yuqori ekanligini anglatadi.

Ikkinci bobning uchinchi fasli “*Sadriddin Ayniy asarlarida poetik mahorat asosida lingvistik birliklarning berilishi*” deb nomlangan. Sadriddin Ayniy ijodkor sifatida o‘zbek va tojik adabiyotlariga katta hissa qo‘shgan, har ikkala tilda sermahsul ijod qilgan zullisonayn mutafakkirdir. Ayniuning lingvopoetik uslubi quyidagi xususiyatlarga ega:

Ayniuning asarlarda ikki tilga murojaat qilishi uning adabiy mahoratini ko‘rsatadi. Bu uslub uning ijod mahsuli orqali ikki xalq orasidagi madaniy va adabiy aloqalarni mustahkamlaydi, shu bilan birga tillararo muloqotni rag‘batlantiradi. Ayniy o‘z asarlarini ikki tilda yaratish bilan birga, ba’zan bir tilga yozilgan asarini ikkinchi tilga o‘zi tarjima qilgan.

Ayniy asarlarida qo‘llangan poetik elementlar, jumladan metafora, personifikatsiya va simvolizm ikki tilning badiiy imkoniyatlaridan keng istifoda qilishni ko‘rsatadi. Ushbu elementlar Ayniy asarlari mazmunini boyitadi va chuqurroq ma’no qatlamlarini yaratadi. Ayniuning tiliga xos xususiyatlaridan biri uning sodda va tushunarli uslubi bilan bir qatorda, adabiy va poetik elementlarni mahorat bilan qo‘llay olishidir. Ayniuning asarlari turli mavzularni qamrab oladi va bu ikki tilda yozilishi bilan kitobxonga turli madaniyatlar, an’analar haqida chuqurroq tushuncha beradi: *Ey, zahmatkashlar! Ey zahmatkashlar!... /Bukun shodlik, bukun shodlik kunidir./ Ori! Bukun shodlik kunidir./ Qadrin bilinglar!/ Bu ozodlik, Bu ozodlik kunidir./* “Zahmatkashlar nag‘masi” she’ri oziga xos takrorlar bilan davom etadi, unda S.Ayniy o‘z g‘oyasini asta-sekin ochib, badiiy ifodalab boradi. She’r 36 misradan iborat, u adibning dastlabki o‘zbekcha muhim asarlaridan biri sanaladi. Bu misralardan

ko‘rinadiki, uning tili ham, uslubi ham murakkab emas, ko‘p jihatdan sodda, tushunarli va xalq tiliga yaqindir. Asar haqida, uning tili va uslubi ustida ma’lum tasavvur hosil qilish uchun undan bir kichik parcha keltirdik. S.Ayniy she’riyatiga konkret-tarixiy yondashuv, tushunarli va g‘oyaviy estetik ahamiyat, tarixiy va tarbiyaviy g‘oya, muhim va zamonaviy ruh bilan sug‘orilganlikni kuzatamiz.

Ta’kidlash joizki, yozuvchi o‘z ijodining dastlabki davrida frazeologik birikmalardan, idiomalardan va aforizmlardan foydalanishni boshlagan, keyinchalik bu usuldan mohirona foydalanib o‘ziga xos orginal ravishda qo‘llay olgan bilingual shoir hisoblanadi. Masalan: *Gar kishilar eshidida xor bo‘lmayin desang, / Matlab yuzini o‘girma maktab eshidigan! /*. Hozirda, uning aforizmlari maktab shiorlariga aylanib ulgurgan va, takidlash joizki, o‘z misralarida ikki tilni mohirona qo‘llagan hamda Ayniy satrlari sodda, ravon va jarangdor bo‘lishi bilan birga tarbiya, to‘g‘rilik va haqqoniylig sha’niga to‘qilgan yuksak aforizmdir.

S.Ayniy she’rlarini tahlil qilish davomida uning mulammalariga murojaat qildik va uning yozgan she’rlari baytlarida bir necha xil mulammalar mavjudligi va ularni ikki tilda estetik jihatdan oqilona foydalanilganini guvohi bo‘ldik:

a) she’rning bir qismi (misrasi) bir tilda, ikkinchi misrasi boshqa tilda yoziladi: Misol: *Bir dasti riyo, dasti jafo, dasti xiyonat.. Mumkinmi sani aylasa ketdikcha siyonat?.... Ey qotila, ey fojira, ey fitnai Turon! Turon eli fitnang ila bo‘lsunmi parishon?!* b) misraning birinchi yarmi bir tilda, ikkinchi yarmi boshqa tilda yoziladi: Misol: *Boshingni kesduran qotil, u badtiynat, u sangin dil. Xudodan gar esa g‘ofil, xaloyiqdan uyolmasmu?* c) she’rning boshi va oxiri bir tilda, o‘rtadagi so‘zlar boshqa tilda: Misol: *Ey madfuni insoniyat, ey maqtuli ahror! Ey markazi vahshoniyat, ey mahmani ashror!*

Bilamizki, she’riy nutqda ba’zi faol uchraydigan so‘zlar adabiy tilda yoki umumiste’molda mavjud so‘zlarning qo‘llanilishi ma’no tusiga ega bo‘lmasa-da, so‘z shakli ma’no attenkasida faqat she’riy tilidagina reallashadi. Masalan, S.Ayniy “xiyonat” so‘zini takror ishlatmaslik uchun “siyonat” so‘zini qo‘llagan. Ma’lumki, adabiyotshunoslikda ikki va uch tilda yaratilgan she’rlar “mulamma” deb yuritilgan. “Mulamma” she’r ikki tilda yozilgan bo‘lsa, “shir-u shakar”, uch tilda yozilgan bo‘lsa, “shahdu shakar” deb yuritilgan²⁰. Mumtoz she’riyatimizda, asosan, arabcha, forscha, o‘zbekcha mulammalar yozilgan bo‘lsa, XX asr jahon she’riyatida inglizcha-ruscha mulammalar yaratila boshlangan. Sadriddin Ayniyning ijodi ikki tilning go‘zallagini va ifodaviy quvvatini nafaqat saqlab qolish, balki bu tillar orqali yangi adabiy asarlar yaratish orqali ikki madaniyatni birlashtirishga xizmat qiladi. Uning asarlari ikki tilni biladigan kitobxonlar uchun qimmatli manba hisoblanadi va ular orqali ikki xalqning o‘zaro madaniy va adabiy muloqotini chuqurlashtirishi mumkin.

Ikkinci bobning to‘rtinchi faslida Sadriddin Salim Buxoriy asarida lingvopoetik vositalarning ifodalaniishi tahlilga tortildi, adib she’riyatida tabiatga, insoniy mehribonlikka e’tibor qaratilgani, shoir tabiatni inson qalbiga qaratilgan oyna sifatida qarashi va uning hodisalaridan insoniy hodisalarga o‘tishni afzal ko‘rishiga amin bo‘lindi.

²⁰ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.–Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B.360

Sadriddin Salim Buxoriy she'riyatida lingvopoetik vositalarning berilishi quyidagi asosiy jihatlar orqali namoyon bo'ladi:

Sadriddin Salim Buxoriy tabiat hodisalarini inson tajribalari bilan bog'laydi va shu orqali tabiatni insoniy his-tuyg'ularning aksi sifatida tasvirlaydi.

Adib o'zbek va tojik tillarida ijod qilishi, uning asarlarida ikki tilning go'zalligini va ifodaviy quvvatini namoyish etadi. Adibning asarlari ikki madaniyatning adabiy an'analarini o'zaro bog'laydi va shu tariqa yangi estetik qadriyatlar yaratadi. Shoirning she'rlari obrazlar va ramzlarga boy bo'lib, tabiat, insoniyat, tarixiy voqealarni chuqur va rang-barang tasvirlaydi. Adib folklor materiallarini zamonaviy kontekstda qayta ishlaydi va bu orqali o'zining milliy madaniyatiga bo'lgan hurmat va muhabbatini ifoda etadi.

Umuman olganda, Sadriddin Salim Buxoriyning ijodi o'zbek va tojik adabiyotlarida muhim o'rinni tutadi va uning asarlari ikki xalqning madaniy va adabiy merosini o'zaro boyitishga xizmat qiladi. Shoirning she'rlari estetik va mazmunan chuqur, zamonaviy va an'anaviy unsurlarni o'zaro uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'lgan.

Tadqiqotning uchinchi bobi "*Bilingual she'riyatda lingvopoetik vositalarning qiyosiy tahlili*" deb nomlangan, unda ikki tilda yozilgan adabiyotda qo'llanilgan lingvopoetik (til va uslubiy) vositalar solishtirma usulda o'rganilgan va tahlil qilingan.

Mazkur bobining birinchi fasilda adib Samuel Bekketning ikki tilli she'riyatining qiyosiy tahlil qilingan bo'lib, ingliz va fransuz tillarida yaratgan asarlari orasidagi farq va o'xshashliklar yanada aniqroq ko'zga tashlanadi. Ushbu qiyosiy tahlil orqali Bekketning turli til va madaniyatlardagi ifodaviy imkoniyatlardan foydalanganlik mahoratini ko'rib chiqdik.

Bekketning ingliz tilidagi she'rlari aniq va to'g'ridan to'g'ri ifodalashga moyil bo'lsa, fransuz tilidagi she'rlari ko'proq abstrakt va filosofik mazmunga egaligi, bu farq, shoirning har ikki tilning badiiy imkoniyatlaridan o'rinni foydalanganligini aytish mumkin. Shoirning fransuz tilidagi she'rlari ko'pincha ingliz tilidagi she'rlariga qaraganda ko'proq ramziy va tasviriydir. Bu, Bekketning fransuz tilida yanada erkinroq ijod qilishga moyilligini anglatadi, ingliz tilida esa an'anaviy she'riy shakllarga sodiq qolishni afzal ko'radi.

Bekketning fransuz tilidagi she'rlari odatda ingliz tilidagi she'rlariga qaraganda ko'proq ritmik va musiqiy xususiyatlarga ega hamda bu fransuz tilining fonetik jihatlaridan samarali foydalanish bilan bog'liq. Bekketning har ikki tilda yozilgan asarlari o'z tilining madaniy va ijtimoiy kontekstini aks ettiradi. U ingliz tilida yozganida Britaniya va Amerikaning ijtimoiy muammolariga to'xtalsa, fransuz tilidagi asarlari Fransyaning madaniy va falsafiy mohiyatini chuqurroq ifodalaydi.

Bekketning ikki tilli asarlari turli adabiy an'analar va asarlarga ishora qiladi. Bu ishoralar ingliz va fransuz adabiyoti bilan aloqalarni o'z ichiga oladi va adibning ikki madaniyat o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'taydi. Bekketning ikki tilli ijodi, uning she'riy asarlari orqali ikki xil madaniyatni birlashtirish va o'zaro ta'sir o'rnatishga intilishi bilan ajralib turadi. Uning asarlari ikki tilda ham o'ziga xos badiiy qiymatga ega va bu tillar orqali yaratilgan she'rlar, adabiyotshunoslar va o'quvchilar uchun qimmatli manba sanaladi.

*then no sound/ then gently light/ then no sound /then gently dark /then light/ then dark/ then nothing/alors plus aucun son/ alors douce lumière/ alors plus aucun son/ alors douce obscurité/ alors lumière/ alors obscurité /alors rien.(shundan keyin hech qanday tovush yo ‘q/ shundan keyin mayin yorug’lik/ shundan keyin hech qanday tovush yo ‘q/ shundan keyin mayin qorong’ilik/ keyin yorug’lik/ keyin qorong’ilik /keyin hech narsa) Har ikki shaklda ham takrorlanish va minimalizm uslublari mavjud. Ingliz va fransuz tillaridagi takrorlanish va ritm o‘xhash bo‘lib, she’rning musiqiy va meditatsion xususiyatlarini aks ettiradi. Ingliz va fransuz tillarining tuzilishi va tovushlari she’rning kayfiyatiga ta’sir qiladi. Masalan, fransuzcha versiyada “*d’un côté à l’autre dans l’ombre*” iborasi tovush va ritm jihatdan o‘ziga xosdir. Ikkala tilda ham Beckettning til orqali ifoda etish qiyinchiliklarini va inson tajribasining noaniqligini ko‘rsatadi. Har ikki tilda “light” va “dark” iboralari mavjud bo‘lib, ular hayot va o‘lim, borliq va yo‘qlikni anglatadi. Bu qisqa misol Bekkettning ikki tilli she’riyatida til va ifoda cheklovlarini qanday o‘rganishini va har ikki tilda ham o‘ziga xos estetik tajriba yaratishini ko‘rsatadi.*

Dissertatsiya uchinchi bobining ikkinchi faslida J.Keruak va O.Uayld asarlaridagi lingvopoetik vositalar tahlilga tortildi. Ma’lumki, Jek Keruak, “beat generation” ning markaziy namoyondalaridan biri bo‘lib, uning asarlari spontan nasr, ochiq ifoda va adabiy formalardan qochish bilan ajralib turadi. Uning she’riyatida lingvopoetik vositalar quyidagicha aks etadi:

Keruak she’rlarida grammatik va sintaktik qoidalarni e’tiborsiz qoldirgan holda, fikrlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri va tahrirsiz ifodalaydi. Bu uslub she’riy matnda erkinlik va shaxsiy tajribalarni yanada samimiy aks ettirishga imkon beradi. Shoiring she’rlarida so‘zlar va jumlalar ritmik qurilishga ega, bu esa matnlarga musiqiy tuyg‘u qo‘sadi. U ko‘pincha takroriy uslubdan foydalanadi, bu esa she’rlarining ohangini kuchaytiradi. Keruak ijtimoiy qoidalalar va an’anaviy adabiy uslublarga qarshi chiqish orqali, ko‘cha tilidan va tabiiy nutq ohanglaridan foydalanadi, bu esa, uning asarlariga haqiqiy va samimiy hissiyot baxsh etadi.

Oskar Uayld esa viktorian davri Ingliz adabiyotining yorqin vakili sifatida tanilgan. Uning she’riyati esa, ziyolilik, hazil va ajoyib uslubiy mahorat bilan ajralib turadi:

Uayld she’rlarida metafora, metonimiya kabi turli badiiy vositalar keng qo‘llanadi. U o‘zining she’rlarida til bilan o‘ynaydi, obrazlarni yaratishda esa nozik ta’riflar va go‘zal ifodalardan foydalanadi. Uayld o‘z asarlarida kutilmagan burilishlar va paradokslardan ustalik bilan foydalanadi, bu esa kitobxonlarni o‘ylashga majbur qiladi va asarning umumiyligi ta’sirini oshiradi. Forma va qofiya: Uayld she’riyatida an’anaviy she’r shakllari va qofiyalarni mahorat bilan qo‘llaydi, tabiiyki, bu uning matnlarida ritmik go‘zallik taminlaydi.

Je suis né dedans Saint-Jean-Baptiste/ Je mourrai dedans Saint-Jean-Baptiste. Bu satrlarda Keruak o‘zining fransuz-kanadalik ildizlari va o‘zligini ifodalaydi. “Je suis né” (Men tug‘ilganman) va “Je mourrai” (Men o‘larman) so‘zлari orqali Keruak hayotning siklik tabiatini va o‘z madaniy merosiga bo‘lgan chuqur bog‘liqligini aks ettiradi. Keruakning ingliz tilidagi she’rlari Beat avlodining o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan sayohat, erkinlik va ruhiy izlanishlarni anglatadi. *The*

